

AGRESSIV XULQ ATVOR YUZAGA KELISHINING NAZARIY ASOSLARI

Rahmatullayeva Gulhayo Xikmatillo qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti namangan filiali

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi MPRI_23UA magistranti

Telfon raqam: +998934097879

Anotatsiya: Ushbu maqolada agressiv xulq-atvorning nazariy asoslari, uning psixologik, sotsiologik va biologik omillar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Agressiyaning shakllanishi va namoyon bo'lishiga oid yetakchi ilmiy yondashuvlar – psixoanalitik, biheavioristik, kognitiv va sotsiokultural nazariyalar asosida izoh beriladi. Shuningdek, agressiv xatti-harakatlarning individual va ijtimoiy determinantlari, bolalar va kattalar orasida uni shakllantiruvchi omillar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Agressiv xulq-atvor, agressiya nazariyalari, psixoanalitik yondashuv, biheaviorizm, ijtimoiy ta'sir, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy determinantlar, profilaktika strategiyalari.

Kirish: Agressiv xulq-atvor insoniyat tarixida doimo dolzarb bo'lib kelgan murakkab psixologik hodisa hisoblanadi. U shaxslararo nizolar, ijtimoiy beqarorlik va hatto global mojarolarning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Agressiya – bu odamlar yoki odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi[1]. Agressiv xulq-atvorni tushunish uchun turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri aggressiyaning kelib chiqishi va namoyon bo'lishini turlicha izohlaydi. Psixoanalitik nazariyaga ko'ra, agressiya insonning tug'ma instinktlaridan biri bo'lib, ichki ziddiyatlar va bosimlar natijasida yuzaga keladi. Biheavioristik yondashuv esa

agressiyani o'rganilgan xatti-harakat sifatida ko'rib, uni mukofot va jazolar orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Kognitiv nazariyalar esa agressiv xulq-atvorni shaxsning kognitiv jarayonlari, ya'ni dunyoqarashi, fikrlash uslubi va hissiy holatlari bilan bog'laydi. Sotsiokultural yondashuvlar esa agressiyani ijtimoiy va madaniy omillar, masalan, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va guruh bosimi bilan izohlaydi[2]. So'nggi yillarda dunyo miqyosida zo'ravonlik jinoyatlari soni ortib bormoqda. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili qariyb 1,6 million kishi zo'ravonlik natijasida hayotdan ko'z yumadi, bu esa global o'lim holatlarining 2,5 foizini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlar orasida maktabdagi zo'ravonlik va tazyiqlar ham keng tarqalgan bo'lib, bu ularning ruhiy salomatligi va akademik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham agressiv xulq-atvor muammosi dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 17-yanvardagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori doirasida yoshlar orasida huquqbuzarlik va agressiv xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[3]. Shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, ota-onalar va pedagoglar uchun treninglar o'tkazish kabi profilaktik tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Maqolada agressiv xulq-atvorning nazariy asoslari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda oldini olish strategiyalari tahlil qilinadi. Maqsad – agressiyaning psixologik mexanizmlarini chuqurroq o'rganish va uni kamaytirishga qaratilgan samarali usullarni aniqlashdir. Bugungi kunda O'zbekistonda agressiv xulq-atvorni oldini olish va kamaytirish bo'yicha bir qator muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'smirlar va yoshlar orasida agressiv xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar qaltis guruhlarga mansub o'smirlarni aniqlash, ularning stress holatlariga tushishining oldini olish va rehabilitatsiya qilishga qaratilgan. Shuningdek, ular bilan individual tarbiyaviy va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni

va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-maydagi qaroriga muvofiq, oila institutini mustahkamlashning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[4]. Bu esa oilaviy muhitni yaxshilash orqali bolalar va o'smirlar orasida agressiv xulq-atvorning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, psixologiya sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, agressiv xulq-atvorning turli jihatlari o'rganilmoqda. Masalan, shaxs refleksiv xususiyatlarining agressiyaga moyilligi diagnostikasi bo'yicha ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlar agressiv xulq-atvorni erta aniqlash va oldini olishga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqishga yordam beradi. Umuman olganda, O'zbekistonda agressiv xulq-atvorni kamaytirish va oldini olish bo'yicha kompleks yondashuv qo'llanilib, ijtimoiy, psixologik va pedagogik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Agressiv xulq-atvorning nazariy asoslarini o'rganishda turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, bu borada xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Psixoanalitik yondashuv doirasida Z. Freyd agressiyani insonning tug'ma instinkti sifatida izohlab, uni "Thanatos" – o'lim instinkti bilan bog'liq deb bilgan. A. Bandura va R. Uoltersning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar agressiv xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganadilar[5]. Kognitiv yondashuv esa agressiyaning paydo bo'lishini insonning fikrlash jarayonlari va hissiy tajribasi bilan bog'laydi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu sohada muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. F.F. Rasulova o'smirlarda agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini o'rganib, uni psixokorreksiya qilish usullarini ishlab chiqqan. S.H. Kamolova o'smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning agressiya shakllanishiga ta'sirini tahlil qilgan. O.E. Samiyeva esa bolalar va o'smirlardagi agressiyaning kelib chiqish sabablari va rivojlanish omillarini chuqur o'rgangan[6]. Shuningdek, S.H. Mirzayeva va M. Rahmatullayeva kabi olimlar ham yoshlar orasida agressiyaning shakllanish jarayonini tahlil qilib, uni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ilgari surganlar.

Методологик qism: Ushbu tadqiqotda agressiv xulq-atvorning nazariy asoslarini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili usuli qo'llanildi. Bunda agressiya va agressiv xulq-atvor bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar va tadqiqotlar o'rganildi. Shuningdek, agressiyaning turli nazariy yondashuvlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar tahlili orqali agressiv xulq-atvorning tarqalishi, uning ijtimoiy-demografik omillar bilan bog'liqligi o'rganildi. Masalan, JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili qariyb 1,6 million kishi zo'ravonlik natijasida hayotdan ko'z yumadi, bu esa global o'lim holatlarining 2,5 foizini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlar orasida maktabdagi zo'ravonlik va tazyiqlar ham keng tarqalgan bo'lib, bu ularning ruhiy salomatligi va akademik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham agressiv xulq-atvor muammosi dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 17-yanvardagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori doirasida yoshlar orasida huquqbuzarlik va agressiv xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[7]. Shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, ota-onalar va pedagoglar uchun treninglar o'tkazish kabi profilaktik tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Ushbu metodologik yondashuvlar agressiv xulq-atvorning nazariy asoslarini chuqurroq tushunish va uni kamaytirishga qaratilgan samarali usullarni aniqlashga yordam beradi.

Natijalar: Tadqiqot davomida agressiv xulq-atvorning nazariy asoslari, uning shakllanish omillari va oldini olish yo'llari tahlil qilindi. Agressiyani tushuntirishga turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, psixoanalitik nazariya uni insonning tug'ma instinkti sifatida izohlasa, ijtimoiy o'rganish nazariyasi agressiyaning kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtirilishini ko'rsatadi. Kognitiv yondashuv esa agressiv xatti-harakatlarning shakllanishida insonning fikrlash jarayonlari va hissiy tajribasi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Mahalliy tadqiqotchilarning izlanishlari agressiv xulq-atvorning turli yosh guruhlarida namoyon bo'lishi va uni korreksiyalash usullariga qaratilgan. Masalan, F.F. Rasulova o'smirlarda agressiyaning psixologik

xususiyatlarini o'rganib, uni psixokorreksiya qilish usullarini ishlab chiqqan. S.H. Kamolova o'smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning agressiv xulq-atvorga ta'sirini tahlil qilgan. O.E. Samiyeva esa bolalar va o'smirlardagi agressiyaning kelib chiqish sabablari va rivojlanish omillarini chuqur o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, agressiya inson shaxsiyati, tarbiya, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq murakkab hodisa bo'lib, uni boshqarishda kompleks yondashuv zarur. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, agressiya va zo'rvonlik global miqyosda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili qariyb 1,6 million kishi zo'rvonlik natijasida hayotdan ko'z yumadi, bu esa global o'lim holatlarining 2,5 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda esa ushbu muammoning tarqalish darajasi haqida aniq statistik ma'lumotlar mavjud emas, ammo mahalliy tadqiqotlar va kuzatuvlar bu masalaning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Mamlakatda yoshlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirish maqsadida turli huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror yoshlar orasida huquqbuzarlik va agressiv xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ta'lim va tarbiya jarayonlarida bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kelgusida agressiv xulq-atvorni kamaytirish uchun kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar, ijtimoiy profilaktika, huquqiy chora-tadbirlar va ta'lim tizimida targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali agressiv xulq-atvor holatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Ushbu natijalar agressiyaning tushunish va uni oldini olish bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar hamda amaliy chora-tadbirlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Muxokama: Agressiv xulq-atvor inson psixologiyasi, ijtimoiy muhit va madaniy omillar bilan bog'liq murakkab jarayondir. Ushbu hodisaning nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, agressiyaning shakllanishi va namoyon bo'lishi turli omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Z. Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko'ra, agressiya insonning tug'ma instinkti hisoblanadi va u ichki ziddiyatlar natijasida

yuzaga chiqadi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa agressiyani kuzatish va taqlid qilish natijasida shakllanadigan xulq-atvor sifatida tushuntiradi. Shuningdek, kognitiv yondashuvlar agressiyani insonning fikrlash jarayonlari va hissiy tajribasi bilan bog'laydi[8]. Ijtimoiy va madaniy omillar ham agressiv xulq-atvor shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, ijtimoiy iqtisodiy sharoit, oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi insonning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy stress, iqtisodiy qiyinchiliklar va noto'g'ri tarbiya natijasida agressivlik darajasi ortadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, zo'ravonlik va agressiv xulq-atvor natijasida har yili qariyb 1,6 million kishi hayotdan ko'z yumadi. Bu global o'lim holatlarining 2,5 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda esa rasmiy statistika to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, mahalliy kuzatuvlar yoshlar orasida agressiyaning mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, agressiv xulq-atvorni kamaytirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, ota-onalar va pedagoglar uchun treninglar o'tkazish, yoshlar orasida stressni kamaytirish maqsadida madaniy va sport tadbirlarini kengaytirish lozim. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida agressiyani targ'ib qiluvchi materiallarni cheklash ham muhim choralar sirasiga kiradi. Kelajak bashoratlariga ko'ra, jamiyatdagi agressiyani kamaytirish uchun davlat miqyosida keng qamrovli profilaktik tadbirlar olib borilishi lozim. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash, yoshlar uchun kasb-hunar va sport mashg'ulotlarini kengaytirish, shaxsiy rivojlanish dasturlarini yo'lga qo'yish orqali agressiv xulq-atvorni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, huquqiy bazani takomillashtirish va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunlarni amaliyotga tatbiq etish ham muhim sanaladi.

Xulosa: Agressiv xulq-atvor yuzaga kelishining nazariy asoslari tahlil qilinar ekan, uning shakllanishiga biologik, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sir qilishi aniqlanadi. Biologik yondashuvga ko'ra, agressiya inson evolyutsiyasining tabiiy qismi bo'lib, genetik omillar va neyrofiziologik jarayonlar bilan bog'liq. Ijtimoiy

nazariyalar esa agressiyani ijtimoiy muhit, tarbiya va madaniy ta'sirlar natijasi sifatida tushuntiradi. Psixologik nazariyalarda esa shaxsning ichki ziddiyatlari, emotsional holati va ruhiy jarayonlar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dautova B. E. Rivojlangan davlatlarda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi //scholar. – 2023. – T. 1. – №. 33. – С. 231-238.
2. Mushtariy O., Odiljon P. Boshlang 'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar //qo 'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 640-644.
3. Shohbozbek E. Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 09. – С. 16-20.
4. To'rayev R. N., Abilov S. X. Professional ta'lim tizimida finlandiya tajribasini qo 'llash afzalliklari //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4 special. – С. 139-142.
5. Abduxoliq M., Aziza A. Ta'lim to 'g 'risidagi qonun va uning isloh qilinishi //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 44. – №. 8. – С. 150-155.
6. Marxabo S. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda ijtmoy ish //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 18. – №. 1. – С. 159-163.
7. Ulug'bek Inoyatov. Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim//Yangi asravlodi.- 2024.-176 bet
8. Ergashbayev S. Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida) //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 3-9.
9. Go'Zal Xolmuhammad Qizi Rustamova, & Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova (2025). Nosog'lom oila muhitida voyaga yetayotgan bolalarda ijtimoiy adaptatsiya muammosining psixologik xususiyati. Science and Education, 6 (2), 301-305.

10. Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova, & Go‘Zal Xolmuhammad Qizi Rustamova (2025). Pedagoglar faoliyati jarayonida salomatlik madaniyatining ahamiyati va o‘rni. *Science and Education*, 6 (2), 329-333.
11. Saidbek Dilmurod O‘G‘Li Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. *Science and Education*, 6 (2), 313-319.